UDK: 616.89-008.441.13:616.89-008.454.4

SINTETIK KATINONLAR ISTE’MOLI VA SUITSIDAL XULQ-ATVOR O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK

Ravshanov Jahongir Azimjon o‘g‘li – vrach-ordinator
Respublika ixtisoslashtirilgan ruhiy salomatlik ilmiy-amaliy tibbiyot markazi (Toshkent, O‘zbekiston)
Ashurov Zarifjon Sharifovich – t.f.d., professor
Xayredinova Inara Ilgizovna – Ph.D., dotsent
Respublika ixtisoslashtirilgan ruhiy salomatlik ilmiy-amaliy tibbiyot markazi (Toshkent, O‘zbekiston)
Toshkent davlat tibbiyot universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)
Tadjibayev Uktam Askarovich – klinik bo‘limi mudiri
Abdukaxarova Gulnoza Kurbanovna – vrach-ordinator
Respublika ixtisoslashtirilgan ruhiy salomatlik ilmiy-amaliy tibbiyot markazi (Toshkent, O‘zbekiston)

Annotatsiya. Kirish. *Yangi psixoaktiv moddalar orasida sintetik katinonlar keng tarqalib, ularning iste’moli og‘ir psixopatologik buzilishlar hamda suitsidal xulq-atvor xavfi bilan bog‘liq dolzarb muammo sifatida qaralmoqda.*

Tadqiqot maqsadi. *Sintetik katinonlar iste’moli bilan suitsidal xulq-atvor o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash.*

Material va metodlar. *Retrospektiv kohort tadqiqotda 2022–2024-yillarda Respublika ixtisoslashtirilgan ruhiy salomatlik ilmiy-amaliy tibbiyot markazida davolangan 138 nafar bemor o‘rganildi. Asosiy guruhga sintetik katinonlarga qaram 98 nafar, taqqoslash guruhiga boshqa psixostimulyatorlarga qaram 40 nafar bemor kiritildi. Ma’lumotlar tibbiy hujjatlar, so‘rovnomalar, klinik intervyular va siydikdagi narkotik moddalarni aniqlash natijalari asosida to‘plandi.*

Natijalar. *Alfa-pirrolidinovalerofenon iste’moli yuqori suitsidallik xavfi bilan ishonchli bog‘liq ekanligi aniqlandi. Pregabalin iste’moli esa yuqori suitsidallik xavfining pasayishi bilan bog‘liq bo‘ldi. Mefedron, gabapentin, karbamazepin va tropikamid bo‘yicha statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqlik aniqlanmadi. Guruhlar yosh va jins tarkibi bo‘yicha taqqoslanadigan edi.*

Xulosa. *Sintetik katinonlar, ayniqsa alfa-pirrolidinovalerofenon, suitsidal xavfni oshiruvchi omil sifatida klinik ahamiyatga ega. Bunday bemorlarda suitsidallikni erta aniqlash, muntazam skrining va maqsadli profilaktik choralarni kuchaytirish zarur.*

Kalit so‘zlar: *sintetik katinonlar; yangi psixoaktiv moddalar; suitsidal xulq-atvor; suitsidallik xavfi; alfa-pirrolidinovalerofenon; pregabalin; retrospektiv tadqiqot; psixo-stimulyatorlar.*

ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ УПОТРЕБЛЕНИЕМ СИНТЕТИЧЕСКИХ КАТИНОНОВ И СУИЦИДАЛЬНЫМ ПОВЕДЕНИЕМ

Равшанов Жахонгир Азимжон угли – врач-ординатор
Республиканский специализированный научно-практический медицинский центр психического здоровья (Ташкент, Узбекистан)
Ашуров Зарифжон Шарифович – д.м.н., профессор
Хайрединова Инара Ильгизовна – к.м.н., доцент

Республиканский специализированный научно-практический медицинский центр психического здоровья (Ташкент, Узбекистан)
Ташкентская медицинская академия (Ташкент, Узбекистан)
Таджибаев Уктам Аскарович – заведующий клиническим отделением
Абдукахарова Гульноза Курбановна – врач-ординатор
Республиканский специализированный научно-практический медицинский центр психического здоровья (Ташкент, Узбекистан)

Аннотация. Введение. *Синтетические катиноны являются одной из наиболее распространённых групп новых психоактивных веществ и представляют серьёзную клинико-социальную проблему в связи с высокой частотой психопатологических нарушений и риском суицидального поведения.*

Цель исследования. *Изучить связь между употреблением синтетических катинонов и суицидальным поведением.*

Материал и методы. *Проведено ретроспективное когортное исследование 138 пациентов, проходивших лечение в Республиканском специализированном научно-практическом медицинском центре психического здоровья в 2022–2024 годах. В основную группу вошли 98 пациентов с зависимостью от синтетических катинонов, в группу сравнения — 40 пациентов с зависимостью от других психостимуляторов. Использованы данные медицинской документации, анкетирования, клинических интервью и результатов лабораторной верификации употребления психоактивных веществ.*

Результаты. *Установлена статистически значимая связь между употреблением альфа-пирролидиновалерофенона и высоким риском суицидальности. Употребление прегабалина, напротив, ассоциировалось со снижением высокого риска суицидальности. Для мефедрона, габапентина, карбамазепина и тропикамида статистически значимой связи не выявлено. Сравниваемые группы были сопоставимы по возрасту и полу.*

Заключение. *Употребление синтетических катинонов, особенно альфа-пирролидиновалерофенона, следует рассматривать как значимый фактор риска суицидальности. Полученные данные обосновывают необходимость раннего выявления суицидального риска, клинического мониторинга и целенаправленных профилактических мероприятий.*

Ключевые слова: *синтетические катиноны; новые психоактивные вещества; суицидальное поведение; суицидальный риск; альфа-пирролидиновалерофенон; прегабалин; психостимуляторы; ретроспективное исследование.*

THE ASSOCIATION BETWEEN SYNTHETIC CATHINONE USE AND SUICIDAL BEHAVIOR

Ravshanov Jahongir Azimjon ugli – resident physician
Republican Specialized Scientific-Practical Medical Center for Mental Health (Tashkent, Uzbekistan)
Ashurov Zarifjon Sharifovich – D.M.Sc., professor
Khayredinova Inara Ilgizovna – Ph.D., associate professor
Republican Specialized Scientific-Practical Medical Center for Mental Health (Tashkent, Uzbekistan)
Tashkent Medical Academy (Tashkent, Uzbekistan)
Tadjibayev Uktam Askarovich – head of clinical department
Abdukakharova Gulnoza Kurbanovna – resident physician
Republican Specialized Scientific-Practical Medical Center for Mental Health (Tashkent, Uzbekistan)

Abstract. Introduction. *Synthetic cathinones are among the most widespread groups of novel psychoactive substances and represent a major clinical and social concern because of their association with psychopathological disturbances and suicidal behavior.*

Objective. *To investigate the relationship between synthetic cathinone, use and suicidality.*

Materials and methods. *A retrospective cohort study included 138 patients treated at the Republican Specialized Scientific and Practical Medical Center of Mental Health in 2022–2024. The main group consisted of 98 patients with synthetic cathinone dependence, while the comparison group included 40 patients dependent on other psychostimulants. Data were collected from medical records, questionnaires, clinical interviews, and laboratory verification of psychoactive substance use.*

Results. *The use of alpha-pyrrolidinovalerophenone was significantly associated with a high risk of suicidality. In contrast, pregabalin use was associated with a lower risk of high suicidality. No statistically significant association was found for mephedrone, gabapentin, carbamazepine, or tropicamide. The groups were comparable in terms of age and sex distribution.*

Conclusion. *Synthetic cathinone use, especially alpha-pyrrolidinovalerophenone, should be considered an important risk factor for suicidality. These findings support the need for early identification of suicidal risk, routine clinical monitoring, and targeted preventive interventions in this patient population.*

Keywords: *synthetic cathinones; novel psychoactive substances; suicidal behavior; suicidality risk; alpha-pyrrolidinovalerophenone; pregabalin; psychostimulants; retrospective cohort study.*

Kirish.

Yangi psixoaktiv moddalar (YaPM)ning ishlab chiqilishi va tarqalishi global miqyosda jiddiy xavotir uyg‘otmoqda [1]. Ayniqsa, xalqaro nazorat ostidagi an’anaviy narkotik moddalar iste’molining barqarorlashuvi yoki kamayishi fonida YaPM bozorining o‘sib borayotgani alohida tashvishlidir. Ushbu murakkab jarayonda internet muhim o‘rin tutib, yoshlar orasida YaPMning tez tarqalishiga xizmat qilmoqda [2]. YaPMning eng keng tarqalgan turlaridan biri sintetik katinonlar (SK) bo‘lib, ular noqonuniy bozorda tobora ommalashib bormoqda [3]. SK iste’molining bunday tez sur’atlarda o‘sishi uning oqibatlarini chuqur o‘rganish zaruratini taqozo etmoqda.

So‘nggi ikki o‘n yillik davomida sintetik katinonlar tadqiqotchilar diqqat markaziga aylanib, asta-sekin an’anaviy iste’mol qilinadigan narkotik moddalarni siqib chiqarmoqda [4]. Bu tendensiya SKning yuqori darajada mavjudligi va iqtisodiy jihatdan arzonligi, shuningdek, iste’molchilar orasida ularning qonuniyligi, zararsizligi va xavfsizligi haqida noto‘g‘ri tasavvurlar shakllanishi bilan bog‘liq. Nazorat qilinmagan maqomi tufayli sintetik katinonlar ko‘pincha qonuniy va kam zararli deb qabul qilinib, ularning qaramlikka olib keluvchi potensiali kam baholanadi [5,6]. Biroq klinik amaliyotda SKni boshqa moddalar bilan birgalikda iste’mol qilish holatlari tez-tez uchrab, bu klinik manzarani murakkablashtiradi va tibbiy hamda ijtimoiy oqibatlarni og‘irlashtiradi [7]. SK iste’mol qiluvchilarda psixopatologik o‘zgarishlar tez rivojlanishi kuzatilib, markaziy asab tizimiga neyrotoksik zarar yetkazilishi, shaxs degradatsiyasi, intoksikatsion psixozlar chastotasining oshishi va og‘ir xulq-atvor buzilishlari bilan namoyon bo‘ladi [6, 8].

SK iste’molining oqibatlari ayniqsa xavfli bo‘lib, qaram shaxslar orasida o‘lim ko‘rsatkichining oshishi bilan xarakterlanadi, bu esa har doim ham faqat somatik asoratlar bilan izohlanmaydi. Ayrim hollarda o‘lim tashqi omillar — baxtsiz hodisalar, tasodifiy dozadan oshish yoki suitsid natijasida yuz berishi mumkin bo‘lib, bu holatlar hali yetarlicha ilmiy o‘rganilmagan [9, 10]. Bu esa sintetik katinonlar iste’moli bilan bog‘liq xavf omillarini, jumladan, qaram shaxslarda suitsidal tendensiyalarni chuqur o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi sintetik katinonlar iste'moli va suitsidal xulq-atvor o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishdan iborat.

Materiallar va metodlar.

Mazkur tadqiqot sintetik katinonlar (SK) iste'moli va suitsidal xulq-atvor o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilishga qaratilgan kuzatuvchi retrospektiv kohort tadqiqot dizayniga asoslangan. Tadqiqot 2022–2024-yillar davomida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining Respublika ixtisoslashtirilgan ruhiy salomatlik ilmiy-amaliy tibbiyot markazida davolangan ikki guruh bemorlar materiallari asosida olib borildi. Ma'lumotlar klinik hujjatlar, so'rovnomalar va statistik tahlillar asosida to'plandi.

Tadqiqotga jami 138 nafar bemor kiritildi va ular ikki guruhga ajratildi: asosiy guruhga sintetik katinonlarga qaramlik tashxisi qo'yilgan 98 nafar bemor (MKB-10 kodi F15.2) kiritildi; taqqoslash guruhini esa boshqa psixostimulyatorlarga (masalan, pregabalin, gabapentin, karbamazepin yoki tropikamid) qaram bo'lgan 40 nafar bemor tashkil etdi. Taqqoslash guruhi klinik ta'sirlarining o'xshashligi va MKB-10 ning bir xil kategoriyasiga mansubligi asosida tanlab olindi. Bemorlar oldindan belgilangan kiritish va chiqarish mezonlari asosida saralandi.

Ma'lumotlar quyidagi yondashuvlar orqali olindi: klinik hujjatlar va tibbiy dokumentatsiya (bemorlarning tibbiy kartalari retrospektiv tarzda ko'rib chiqildi, bunda psixiatrik baholash natijalari, psixoaktiv moddalardan foydalanish anamnezi va davolash natijalari tahlil qilindi); so'rovnomalar va strukturalashtirilgan klinik intervyular (psixoaktiv moddalarni iste'mol qilish xususiyatlari, suitsidallik va psixososial omillarni baholash uchun standartlashtirilgan vositalar qo'llanildi; suitsidal xavfni baholash uchun Columbia-Suicide Severity Rating Scale — C-SSRS dan foydalanildi; shuningdek, demografik ma'lumotlar va modda iste'moli anamnezini yig'ish uchun so'rovnomalar qo'llanildi).

Psixoaktiv moddalarni iste'mol qilganlikni verifikatsiya qilish bir nechta ma'lumot manbalarini o'z ichiga olgan kompleks yondashuv asosida amalga oshirildi. Birinchidan, modda iste'moli xususiyatlari to'g'risida ma'lumot to'plash uchun o'z-o'zini hisobot qilishga asoslangan so'rovnomalardan foydalanildi. Obyektiv tasdiqlash maqsadida siydikda sintetik katinonlar va boshqa moddalar mavjudligini aniqlash uchun ekspress narkotestlar o'tkazildi. Bundan tashqari, avvalgi modda iste'moli va davolanish anamnezi bo'yicha hujjatlashtirilgan ma'lumotlarni olish uchun tibbiy hujjatlar tahlil qilindi.

Tadqiqotda psixoaktiv moddalardan foydalanish va suitsidallik xavfi o'rtasidagi bog'liqlikni baholash uchun turli mustaqil va bog'liq o'zgaruvchilar o'rganildi. Mustaqil o'zgaruvchilarga iste'mol qilingan psixoaktiv modda turi, jumladan alfa-PVP, mefedron, pregabalin, gabapentin, karbamazepin va tropikamid kiritildi. Shuningdek, yosh (uzluksiz va kategorik o'zgaruvchi sifatida tahlil qilingan) hamda jins (erkak/ayol) kabi demografik omillar ham hisobga olindi.

Asosiy bog'liq o'zgaruvchi suitsidallik xavfi bo'lib, u psixiatrik hujjatlar va Columbia-Suicide Severity Rating Scale (C-SSRS) bo'yicha olingan ballar asosida yuqori xavf va past xavf guruhlariga ajratildi.

Sintetik katinonlar iste'moli va suitsidallik xavfi o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikni aniqlash uchun imkoniyatlar nisbati (odds ratio, OR) va nisbiy xavf (relative risk, RR) ko'rsatkichlari hisoblandi. Kategorik farqlarni baholash uchun xi-kvadrat (chi-square) testi qo'llanildi. Barcha tahlillarda $p < 0,05$ statistik ahamiyatlilik mezoni sifatida qabul qilindi.

Natijalar.

Umumiy tanlanmada median yosh 29,0 yilni tashkil etdi (Q1 = 25,0; Q3 = 35,0). Guruhlar kesimida tahlil qilinganda, asosiy guruhda median yosh 30,0 yilni (Q1 = 26,0; Q3 = 35,0), taqqoslash guruhida esa 28,5 yilni (Q1 = 24,0; Q3 = 35,0) tashkil etdi. Ikki guruh o'rtasida yosh taqsimotida statistik jihatdan ahamiyatli farq mavjud yoki mavjud emasligini baholash maqsadida Kruskal–Wallis testi qo'llanildi. Natijalar statistik jihatdan ahamiyatli farqlar yo'qligini ko'rsatdi (H = 0,736; p = 0,391), bu esa guruhlarning yosh bo'yicha o'zaro taqqoslanadigan ekanini anglatadi.

Tanlanmaning asosiy qismini erkak ishtirokchilar tashkil etdi (93,48%, n = 129). Asosiy guruhda erkaklar ulushi 90,82%ni (n = 89), taqqoslash guruhida esa barcha ishtirokchilarni erkaklar tashkil etdi (100,00%, n = 40). Ayol ishtirokchilar faqat asosiy guruhda uchradi (6,52%, n = 9), taqqoslash guruhida esa ular qayd etilmadi. Jins taqsimoti bilan iste'mol qilinayotgan modda guruhi o'rtasidagi ehtimoliy bog'liqlikni aniqlash maqsadida xi-kvadrat (chi-square) testi o'tkazildi. Tahlil natijalariga ko'ra, statistik jihatdan ahamiyatli bog'liqlik aniqlanmadi (Chi^2 = 2,568; p = 0,109), bu esa guruhlar o'rtasida jins taqsimoti bo'yicha sezilarli farq mavjud emasligini ko'rsatadi.

Modda iste'moli va suitsidallik xavfi. Tahlilda olti turdagi modda va ikkilik suitsidallik ko'rsatkichi o'rtasidagi tuzatilmagan bog'liqliklar baholandi. Asosiy natijalar 1-jadvalda keltirilgan bo'lib, unda imkoniyatlar nisbati (OR), nisbiy xavf (RR) va davolash zarur bo'lganlar soni (NNT) ko'rsatkichlari aks ettirilgan.

1-jadval.

Moddalarning binar suitsidallikka ta'sirining tahlili

Modda	Ha (Yuqori)	Ha (Past)	Yo'q (Yuqori)	Yo'q (Past)
Alfa-PVP	35	55	9	39
Mefedron	5	7	39	87
Pregabalin	6	32	38	62
Gabapentin	0,51	8	44	86
Karbamazepin	0,51	4	44	90
#	#	#	#	#
Modda	Imkoniyatlar nisbati (OR, 95% IS)	Chi^2	p-qiymat	Nisbiy xavf (RR, 95% IS)
Alfa-PVP	2,76 (1,19–6,39)*	4,96	0,026	2,07 (1,09–3,95)*
Mefedron	1,59 (0,48–5,33)	0,19	0,662	1,35 (0,66–2,76)
Pregabalin	0,31 (0,12–0,80)*	5,27	0,022	0,42 (0,19–0,90)*
Gabapentin	0,12 (0,01–2,18)	1,72	0,189	0,17 (0,01–2,59)
Karbamazepin	0,26 (0,01–4,94)	0,21	0,647	0,34 (0,03–4,67)
#	#	#	#	#
Modda	NNT (Foyda / Zarar)	Talqin		
Alfa-PVP	4,97 (Zarar)	Ahamiyatli bog'liqlik; zararli ta'sir.		
Mefedron	9,33 (Zarar)	Ahamiyatli ta'sir aniqlanmadi.		
Pregabalin	-4,50 (Foyda)	Ahamiyatli bog'liqlik; himoyalovchi ta'sir.		
Gabapentin	-3,58 (Foyda)	Ahamiyatli ta'sir aniqlanmadi.		
Karbamazepin	-4,60 (Foyda)	Ahamiyatli ta'sir aniqlanmadi.		

Asosiy natijalar

• Tahlil alfa-PVP iste'moli bilan yuqori suitsidallik xavfi o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Alfa-PVP iste'mol qilgan shaxslarda yuqori suitsidallik kuzatilish ehtimoli ushbu moddani iste'mol qilmaganlarga nisbatan ikki martadan ko'proq yuqori bo'lgan (OR = 2,76; 95% IS: 1,19–6,39; p = 0,026; RR = 2,07; 95% IS: 1,09–3,95; p = 0,026). Bundan tashqari, zarar

bo‘yicha davolash uchun zarur bo‘lganlar soni (NNT = 4,97) shuni ko‘rsatadiki, taxminan ҳар беш нафар alfa-PVP ta’siriga duch kelgan shaxsdan bittasida qo‘shimcha yuqori suitsidallik holati kuzatiladi.

- Aksincha, pregabalin suitsidallikka nisbatan himoyalovchi ta’sirni namoyon etdi. Tahlil natijalariga ko‘ra, pregabalin iste’moli yuqori suitsidallik xavfining statistik jihatdan аҳамиятли даражада pastligi bilan bog‘liq bo‘lgan (OR = 0,31; 95% IS: 0,12–0,80; p = 0,022; RR = 0,42; 95% IS: 0,19–0,90; p = 0,022). E’tiborlisi, foyda bo‘yicha NNT ko‘rsatkichi (-4,50) shuni anglatadiki, pregabalin qabul qilgan ҳар беш нафар shaxsdan bittasida юқори suitsidallik holatining oldi olinadi.
- Tahlilda mefedron, gabapentin, karbamazepin yoki tropikamid iste’moli bilan suitsidallik o‘rtasida statistik jihatdan аҳамиятли bog‘liqlik aniqlanmadi. Ishonch oralig‘ining (IS) 1 qiymatini kesib o‘tishi ushbu moddalarning suitsidallik xavfiga ta’siri noaniq ekanini ko‘rsatadi.

Muhokama.

Asosiy natijalar talqini. Mazkur tadqiqot natijalari alfa-PVP iste’moli bilan yuqori suitsidallik xavfi o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi, bu esa sintetik katinonlar bilan bog‘liq psixiatrik xavflar haqidagi xavotirlarni yanada kuchaytiradi. Kuzatilgan OR = 2,76 va RR = 2,07 ko‘rsatkichlari alfa-PVP iste’mol qiluvchi shaxslarda suitsidallik xavfi ushbu moddani iste’mol qilmaydiganlarga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanini anglatadi. Ushbu natijalar sintetik katinonlar, ayniqsa alfa-PVP, og‘ir psixiatrik simptomlarni, jumladan qo‘zg‘alish, paranoid buzilishlar, gallyutsinatsiyalar va suitsidal fikrlarni yuzaga keltirishi mumkinligini ko‘rsatgan avvalgi tadqiqotlar bilan mos keladi. Alfa-PVPning, ayniqsa, dopaminergik va serotonergik yo‘llarga ta’sir etuvchi neyrotoksik xususiyatlari ushbu yuqori suitsidallik xavfiga hissa qo‘shishi mumkin.

Aksincha, pregabalin himoyalovchi ta’sirni namoyon etdi: OR = 0,31 va RR = 0,42 ko‘rsatkichlari yuqori suitsidallik xavfining sezilarli darajada past ekanini ko‘rsatadi. Ushbu natija pregabalinning anksiolitik va kayfiyatni barqarorlashtiruvchi xususiyatlarga ega ekanini, bu esa psixoaktiv moddalarga qaram shaxslarda suitsidallikni kamaytirishi mumkinligini ta’kidlagan avvalgi ma’lumotlar bilan mos keladi. Pregabalinning markaziy asab tizimidagi kalsiy kanallarini modulyatsiya qilishi impulsivlik va emotsional disregulyatsiyani kamaytirishda muhim rol o‘ynashi, shu orqali suitsidal xulq-atvor ehtimolini pasaytirishi mumkin.

Klinik va jamoat salomatligi uchun ahamiyati. Mazkur natijalar, ayniqsa sintetik katinonlarni iste’mol qiluvchi shaxslarga nisbatan zararlarni kamaytirish strategiyalari va davolash yondashuvlari nuqtai nazaridan, muhim klinik hamda jamoat salomatligi ahamiyatiga ega:

Suitsidallikni skrining qilish: Alfa-PVP va suitsidallik o‘rtasidagi kuchli bog‘liqlikni inobatga olgan holda, klinitsistlar sintetik katinonlarga qaram bemorlarda suitsidal fikrlar mavjudligini muntazam ravishda skrining qilishlari lozim.

Profilaktik aralashuvlar: Jamoat salomatligi dasturlari sintetik katinonlarning xavflari, ayniqsa ularning psixiatrik asoratlar bilan bog‘liqligi haqida aholining xabardorligini oshirishga qaratilishi zarur.

Cheklovlar. Mazkur muhim natijalarga qaramay, bir qator cheklovlarni e’tirof etish lozim:

a) Kuzatuv dizayni: Ushbu tadqiqot retrospektiv kohort yondashuviga asoslangan bo‘lib, bu sabab-oqibat bog‘liqligini to‘liq aniqlash imkonini cheklaydi. Ushbu bog‘liqliklarni vaqt davomida tasdiqlash uchun longitudional tadqiqotlar talab etiladi.

b) Ayrim moddalarda tanlanma hajmining kichikligi: Ba’zi moddalar (masalan, mefedron, karbamazepin, tropikamid) bo‘yicha tanlanma hajmining nisbatan kichikligi statistik quvvatni cheklagan bo‘lishi mumkin, bu esa ularning ta’siri haqida qat’iy xulosalar chiqarishga to‘sqinlik qiladi.

Xulosalar.

Mazkur tadqiqot sintetik katinonlar iste’moli va suitsidallik o‘rtasidagi bog‘liqlik haqida muhim ilmiy ma’lumotlar beradi. Alfa-

PVP iste'moli bilan suitsidallik xavfining oshishi o'rtasidagi kuchli bog'liqlik klinik monitoringni kuchaytirish zaruratini ta'kidlaydi. Aksincha, pregabalinning himoyalovchi ta'siri uning suitsidallikni kamaytirishdagi potensial roli haqida qiziqarli savollarni yuzaga keltirib, qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazish zarurligini ko'rsatadi. Ushbu natijalar yangi psixoaktiv moddalarning psixiatrik xavflari haqidagi ilmiy dalillar bazasini boyitadi hamda erta aralashuv va maqsadli profilaktika choralarining muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

ADABIYOTLAR

1. G. Martinotti, S. Schiavone, A. Negri, C. Vannini, L. Trabace, D. De Berardis, et al., "Suicidal behavior and club drugs in young adults," Brain Sci., vol. 11, no. 490, 2021.

2. F. Schifano, "Recent changes in drug abuse scenarios: The new/novel psychoactive substances (NPS) phenomenon," Brain Sci., vol. 8, no. 221, 2018.

3. European Monitoring Centre for Drugs and Drug Addiction, European Drug Report 2023: Trends and Development [Online]. Available: https://www.emcdda.europa.eu/publications/european-drug-report/2023/new-psychoactive-substances_en.

4. Karila, B. Megarbane, O. Cottencin, and M. Lejoyeux, "Synthetic cathinones: A new public health problem," Curr. Neuropharmacol., vol. 13, no. 1, pp. 12–20, 2015.

5. R. Asadullin, A. V. Antsyborov, "Clinical and genetic features of suicidal behavior in patients dependent on synthetic cathinones," Suicidology, no. 4, pp. 61–73, 2018. ["Клиническо-генетические особенности суицидального поведения больных, зависимых от синтетических катинонов," Суицидология, вып. 4, сс. 61–73, 2018].

6. M. Dralyuk, "Some characteristics of synthetic cathinone abuse," Narcology, no. 1, pp. 54–57, 2018. ["Некоторые характеристики злоупотребления синтетическими катинонами," Наркология, вып. 1, сс. 54–57, 2018].

7. M. L. Rokhlina, "Combined use of drugs and other psychoactive substances. Polyaddiction," Issues of Narcology, no. 2, pp. 127–140, 2014. ["Сочетанное употребление наркотиков и других психоактивных веществ. Полизависимость," Вопросы наркологии, вып. 2, сс. 127–140, 2014].

8. S. A. Tsarev, A. V. Shcherban, A. S. Mantsagov, et al., "Analysis of dynamics and causes of high mortality rates from drug poisoning in the Samara region," Narcology, no. 8, pp. 72–79, 2018. ["Анализ динамики и причин высоких показателей смертности от отравлений наркотиками в Самарской области," Наркология, вып. 8, сс. 72–79, 2018].

9. H. Rockett, E. D. Caine, H. S. Connery, et al., "Discerning suicide in drug intoxication deaths: Paucity and primacy of suicide notes and psychiatric history," PLoS One, vol. 13, no. 1, p. e0190200, 2018.

10. Ravshanov, G. K. Abdukakharova, A. I. Rashidov, Z. Sh. Ashurov, E. A. Akhmetova, I. I. Khayredinova, et al., "Synthetic cathinones and suicidal behavior," Narcology, vol. 21, no. 12, pp. 44–54, 2022. ["Синтетические катиноны и суицидальное поведение," Наркология, т. 21, вып. 12, сс. 44–54, 2022].